

TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITIDA TAHLILIIY AMALLARNI QO'LLASHNING TASHKILIIY JIHLATLARI

Boltayev Abror Sayitmuradovich
Alfraganus university Buxgalteriya hisobi
va soliq kafedrası mudiri, DSc, dotsent

Annotatsiya. Ushbu tezisda tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tashkiliy jihatlari bayon qilingan. Xususan, audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanish moliyaviy tahlil qilib o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bois, moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish tartibi taklif etilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tovar-moddiy zaxira, audit, moliyaviy tahlil, moliyaviy hisobot, tovar-moddiy zaxiralar tahlili.

Аннотация. В данном тезисе изложены организационные аспекты применения аналитических процедур при аудите товарно-материальных запасов. В частности, поскольку использование аналитических процедур в процессе аудита тесно связано с изучением финансового анализа, сформулированы выводы с предложением порядка организации и проведения финансового анализа.

Ключевые слова: товарно-материальные запасы, аудит, финансовый анализ, финансовая отчетность, анализ товарно-материальных запасов.

Abstract. This thesis outlines the organizational aspects of applying analytical procedures in inventory audits. In particular, since the use of analytical procedures in the audit process is closely related to the study of financial analysis, conclusions have been formulated, proposing the procedure for organizing and conducting financial analysis.

Keywords: inventory, audit, financial analysis, financial reporting, inventory analysis.

Kirish. Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobotning ishonchliligi auditorlik tekshiruvi natijasida auditorlar tomonidan tasdiqlanadi. Auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining asosiy maqsadi auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan subyektning moliyaviy hisoboti xato yoki firibgarlik holatlarini keltirib chiqaruvchi jiddiy buzib ko'rsatishlar mavjud emas ekanligini aniqlash uchun yetarli darajada dalillarni to'plash va keyinchalik ushbu moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi bo'yicha fikr bildirishdir.

Tadbirkorlik subyekti moliyaviy hisobotining ishonchliligini ta'minlash va auditorlik tekshiruvini o'tkazayotgan auditorlarning fikrlarini obyektivligi, xolisligi va ishonchliligini oshirishda auditorlik dalillarini olishda tahliliy amallarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki, auditorlik tekshiruvida tahliliy amallarni qo'llashda ularning javobgarlik riskini kamaytirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Товар-моддий захиралар аудитида таҳлилий амалларни қo‘ллашнинг тартибга солувчи асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжат 520-сон “Таҳлилий амаллар” номли аудитнинг халқаро стандарти ҳисобланади. Маъзкур стандартида “таҳлилий амаллар молийавий ва номолийавий ахборот о‘ртасидаги о‘зaro алоқаларни о‘рганиш yo‘ли билан молийавий ма‘лумотларни баҳолашдан иборат. Таҳлилий амаллар муҳим аҳамиятга ега bo‘lgan тенденсиялар ва коэффитсийентлар таҳлилни, шунингдек, агар улар бoшқа о‘ринда ма‘лумотлар билан мос тушмаса yoki башорат қилинган қийматлардан фарқ қиладиган bo‘lsa, о‘zaro алоқалар ва четланishларни о‘рганishни о‘z ичига олади” [1] деб белгиланган.

Бизнинг фикримизча, аудит жарайонида таҳлилий амаллардан фойдаланиш тadbirkorlik субъекти молия-xo‘jalik фаолиятини молийавий таҳлил қилиб о‘рганish билан chambarchas bog‘liq ҳисобланади.

Олиб борилган тадқиқотлар шуни ko‘rsatadiki, о‘rganilgan иқтисодий манбаларда тadbirkorlik субъектларида молийавий таҳлилни тashkil etish борасида турлича yondashuvlar mavjud. Xususan, S.I.Krylovning yozishicha, “Молийавий таҳлил to‘rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin: I bosqich. Dastlabki молийавий таҳлил; II bosqich. Chuqurlashtirilgan молийавий таҳлил; III bosqich. Молийавий таҳлил natijalarini umumlashtirish, молийавий natijalarni yaxshilash va tashkilotning молийавий holatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga o‘tish; IV bosqich. Tashkilotning молийавий natijalari va молийавий holatini prognoz qilish” [3].

N.N.Kotova va S.I.Kuxarenkolarning ta’kidlashicha, «Tashkilotning молийавий таҳлили quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: I bosqich. Tashkilot mol-mulkining tarkibi va tuzilishini (balans aktiv) va uni qoplash manbalarini (balans passiv) taҳлил qilish va baҳоlash; II bosqich. Tashkilotning bankrotligini bашorat qilish; III bosqich. Likvidlik taҳlili; IV bosqich. Kapital tarkibi, uzoq muddatli to‘lov qobiliyati va молийавий barqarorlik taҳlili; V bosqich. Ishchanlik faolligini baҳоlash; VI bosqich. Foyda darajasi va faoliyat samaradorligini baҳоlash» [4]

Iqtisodchi olim M.Q.Pardayev tomonidan “молийавий таҳлилни tashkil etish bosqichlari quyidagicha tarkiblanadi: taҳлил maqsadini aniqlash va unga yondashish yo‘llarini belgilash bosqichi; taҳлил uchun taqdim qilinadigan aхborotlar sifatiga baho berish bosqichi; taҳлил usullaridan foydalangan holda taҳлил o‘tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichi” [5]. Маъзкур yondashuvda иqtisodchi olim молийавий taҳлилни tashkil etish bosqichlarini umumlashtirgan holda tavsiflaydi.

Iqtisodchi olim E.A.Akromov [2] tomonidan esa молийавий taҳлилни tayyorlash va o‘tkazish bosqichlari quyidagilarni o‘z ичига olishi ko‘rsatib o‘tilgan: молийавий taҳлилни o‘tkazishning ishchi dasturini tuzish. Dasturda taҳлилning maqsadi va vazifalari aniqlanadi; taҳлилни o‘tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya’ni taҳлил qiluvchilarning ro‘yxatini tuzish; taҳлил uchun foydalaniladigan иqtisodiy ma‘lumotlarni to‘plash; молийавий taҳлилда foydalanadigan ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash; молийавий taҳлил ko‘rsatkichlarini hisoblash usullarini aniqlash; taҳлилда foydalanadigan ko‘rsatkichlarni hisoblash va ularni umumlashtirish; taҳлил

yakunlarini jadvallar va chizmalarda shakllantirish; moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlab, unda tahlil yakunlari bo'yicha xulosalar chiqarib, kelgusida korxonaning moliyaviy holatini ko'tarishga bag'ishlangan tavsiyalar ishlab chiqish; moliyaviy tahlil yakunlarini maxsus yig'ilishda muhokama qilish; tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, korxonaning moliyaviy holatini ko'tarish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqib, ularni korxona rahbariyatining maxsus qarorida ifodalash.

Ushbu tarkiblashda moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlari kichik birlik bosqichlariga bo'lib ko'rsatilgan. Fikrimizcha, ayrim ko'rsatilgan bosqichlarni o'zaro umumlashtirish lozim. Jumladan, "tahlilni o'tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya'ni tahlil qiluvchilarning ro'yxatini tuzish" bosqichini "moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturini tuzish" bosqichiga kiritish lozim. Chunki, moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturida bu bosqichda amalga oshiriladigan ishlar tasniflangan holda tavsiflab beriladi.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov «Moliyaviy tahlilni tashkil etishni bosqichlarini iqtisodiy tahlil va uning tarkibiy qismlariga nisbatan yagona asosda birday belgilash to'g'ri, lekin aynan moliyaviy tahlili yuzasidan uni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq: moliyaviy tahlil maqsadini belgilash va rejasini tuzish; moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash; moliyaviy tahlilni bevosita o'tkazish bosqichi; tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi; qaror tayyorlash bosqichi; tahlil natijalarini realizatsiya qilish bosqichi» [7] deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, moliyaviy tahlilni tashkil etishdagi yondashuvlar turlicha bo'lganligi bilan ularning mazmuni tahlilni sifatli va foydali o'tkazishga qaratilgan.

Iqtisodchi olim A.S.Boltayev [6] «Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni sifatli tashkil etish va muvaffaqiyatli o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq» deb ta'kidlagan holda "Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasini va dasturini tuzish", "Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash", "Moliyaviy tahlilni o'tkazish", "Moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash" va "Moliyaviy tahlil natijalarini amaliyotga tatbiq etish" bosqichlariga ajratib tasniflaydi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlarni tavsiflab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tashkiliy jihatlarini o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlari turlicha ekanligini ta'kidlagan holda ularning yondashuvlaridan ko'zlangan asosiy maqsad moliyaviy tahlilni to'g'ri tashkil etish, sifatli o'tkazish va natijalarining samaradorligiga qaratilganligini e'tirof etish mumkin.

Bizning fikrimizcha, tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llash hamda ularning natijalari aniqligi, to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlash

maqsadida tovar-moddiy zaxiralar tahlilini quyidagicha tashkil etish, o'tkazish va natijalarini umumlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (jadval).

Xulosa. Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tashkiliy jihatlari bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

tadbirkorlik subyektlari moliyaviy hisobotlarining ishonchliligini ta'minlash va auditorlik tekshiruvini o'tkazayotgan auditorlarning fikrlarini obyektivligi, xolisligi va ishonchliligini oshirish maqsadida auditorlik dalillarini olishda tahliliy amallarni qo'llash muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi;

Jadval

Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari¹¹

Tahlil bosqichlari	Amalga oshiriladigan ishlar
I bosqich Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish	Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va o'tkazish rejasi va dasturini tuzish bosqichida quyidagilar aniq belgilangan va ko'rsatilgan bo'lishi shart: tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlash; tahlil obyekti aniqlash; tahlil mazmunini izohlash; tahlil o'tkazuvchilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash; tahlil o'tkazish vaqti va muddatini belgilab olish; tahlil manbalari aniqlab olish; tahlil natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilash.
II bosqich Tovar-moddiy zaxiralar tahlili yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash	Mazkur bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: - tahlil uchun axborot manbalarini to'plash; - tahlil uchun foydalaniladigan qo'shimcha zarur ma'lumotlarni to'plash; - to'plangan ma'lumotlarni tahlilga mos holda soddalashtirish; - tahlil uchun zarur jadval, sxemalar va diagrammalar maketlarini tuzish; - tahlil usullarini aniqlab olish.
III bosqich Tovar-moddiy zaxiralar tahlilini o'tkazish	Ushbu bosqich asosiy bosqichlardan biri bo'lib, unda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: - mezon ko'rsatkichlarini aniqlash; - ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish va natijalarni baholash; - natijaning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajalarini hisoblash; - natijaga ta'sir ko'rsatgan har bir omilning kelib chiqish sabablarini o'rgangan holda baho berish; - natijalarni umumlashtirish va xulosa tayyorlash.
IV bosqich Tovar-moddiy zaxiralar tahlili natijalarini rasmiylashtirish va audit hisobotiga kiritish	Bu bosqichda tovar-moddiy zaxiralar tahlili yakunlanadi va tahlil natijalarini baholagan holda auditorlik hisobotiga kiritish uchun materiallar tayyorlanadi. Ya'ni: - tahlil natijalari hisobot shaklida rasmiylashtiriladi; - tahlil natijalarini muhokama qilish; - tahlil natijalariga asoslangan holda yo'l quyilagan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi; - mavjud ichki imkoniyatlari o'rganilgan holda faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari belgilanadi; - tovar-moddiy zaxiralar tahlili natijalari umumlashtirilib, auditorlik hisobotiga kiritish uchun material tayyorlanadi.

audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanish tadbirkorlik subyekti moliya-

¹¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xo‘jalik faoliyatini moliyaviy tahlil qilib o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqligi hamda tahliliy amallarni ham muayyan izchillikda bo‘lgan bosqichlarga ajratgan holda olib borish audit ishi sifatini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlagan holda tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari taklif etildi;

tovar-moddiy zaxiralar tahlilini tashkil etish va o‘tkazishning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar tavsiflab berildi. Bu esa, tovar-moddiy zaxiralar tahlili natijalari aniqligi, to‘g‘riligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 520-son “Tahliliy amallar” auditning xalqaro standarti.
<https://www.nrm.uz/>.
2. Э.А.Акрамов. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т., 2007. -18 бет.
3. Крылов С.И. Финансовый анализ. Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 7 ст.
4. Котова Н.Н., Кухаренко С.И. Финансовый анализ. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2013. – 12 ст.
5. М.Қ.Пардаев Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 1999. -11 бет.
6. Boltaev A.S. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va uni o‘tkazish tartibini takomillashtirish. “THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES” International scientific-online conference. 179-184 pp.
7. M.Yu.Raximov, N.Sh.Xajimuratov, N.N.Kalandarova. Moliyaviy hisobot tahlili. (Darslik). – Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. -94 b.